

**ADABIYOT DARSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN
FOYDALANISH.**

Iskandarova Dilafro'z

*Xorazm viloyati Urganch shahar 18- son mакtabning
ona тили va adabiyot fani o'qituvchisi.*

Hozirgi kungacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublardan foydalanib, ta'limning samarodorligini ko'tarishga bo'lган qiziqish, kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan darslar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlarga qaratilgan. Barcha fanlar kabi adabiyot fani darslarida interfaol usullardan foydalanish, darslarini qizqarli va ijobiy tashkil etish o'quvchilarning shu fanga bo'lган qizqishlarini oshiradi. Adabiyot darslarini qizqarli va ijobiy tashkil etish pedagogning bosh maqsadidir. Pedagog darslarda interfaol metodlardan foydalanishi o'quvchida tashabbuskorlikni, mustaqillikni, bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirishni, kuzatuvchanlikni, xotira va ijodiy tasavvurni rvojlantiradi. Quyida adabiyot fanida qo'llash mumkin bo'lган interfaol metodlarni darslarda tatbiq etish tartibi yuzasidan metodik taviya beriladi.

"Muammo metodi: Muammo metodi yuqori 8-9-sinflarda foydalilanadi. Bunda o'quvchilarga mavzu yuzasidan kelib chiqqan turli muammoli masala echimini to'g'ri topishlariga o'rgatish. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida Zaynabning baxtsizligida uning o'zi ham ayibdormi? Muammoga o'quvchilar o'z fikrlari bilan yechishga xarakat qiladilar. Bu usul orqali o'quvchilar fikrlarini dallilashga, isbotlashga o'rganadi.

Masalan:

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni yo'llari yechish
Zaynabning baxtsizligida uning o'zi ham ayibdormi?		

"Assesment "metodi.O'quvchilar bu metoddha guruh bo'lib yoki yakka tartibda o'z - o'zini baholashadi. Bu metodni yuqori sinflarda yozuvchi va shoirlarning hayoti va ijodini o'rganishda qo'llasa bo'ladi.O'quvchilarga bajarish uchun 5 minut beriladi.O'quvchilar berilgan vaqt ichida tarqatmani bajarib bo'lgandan so'ng ekranda to'g'ri javoblar ko'rsatiladi.To'g'ri javob bergen rag'batlantiriladi. **Assesment metodi**.

Mavzu : Shoir Erkin Vohidov hayoti va ijodi

<p>Test</p> <p>Erkin Vohidovning ilk she'riy to'plami?</p> <p>A.Nido</p> <p>B.Tong nafasi</p> <p>S.Buloq</p> <p>D.Ona</p> <p style="text-align: right;">1 ball</p>	<p>Jumlan davom ettiring.</p> <p>Erkin Vohidov 1964- yilda ... yaratgan.</p> <hr/> <p style="text-align: right;">2 ball</p>
<p>She'riy misrani davom ettiring</p> <p>Tarixingdir ming asrlar</p>	

Senga tengdosh pomir-u

2 ball

Matn yaratish metodi: O'quvchilar tarqoq ma'lumotlardan foydalanib ma'lumotlarni to'g'ri yozib matn yaratishlari kerak bo'ladi. Matn yaratish metodi o'quvchilardan fikrash, tezkorlikni talab etadi. Bu usulda o'quvchilar guruh bo'lib ishlashadi. Bu o'quvchilarda hamjihatlik hamda ma'sulyatni tarbiyalaydi.

Erkin	28-dekabrda	Tug'ilgan
1936-yil	Vohidov	Farg'ona
tumanida	Oltiariq	viloyatining
Tong lavhasi	Buloq	Ona tuproq
She'rlari	1964-	Nido
dostoni	yozgan	yilda

1. Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrdan Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida tug'ilgan.

2. 1964-yilda "Nido" dostonini yozgan.

3. She'rlari "Tong lavhasi", "Buloq", "Ona tuproq".

MYUNSTERBERG TESTI: (mavzuni mustahkamlash): Yo'riqnomma-harfli matn orasida 6-sinf adabiyot fanida "Shum bola" qissasidagi qahramonlar nomlari beriladi. Harflar orasidan qahramonlar nomlarni topib, javoblar varag'iga yozishi lozim (kim ko'proq topsa rag'batlantiriladi). Bajarish vaqtiga- 3 daqiqa.

MYUNSTERBERG TESTI

FLIKSARI BOYDIY AJKSHAR OFATROSFERAM VBF QAROVOYS BIOSFERA VC XZADOLMUZLIK UYTRBO'RIBOVACHAQASDCHO'HOJIBOBOLASDFGHJKES HONJKLOLAERRTT SADARYOSULTOO'G'R IJKHGU YINBF

"Qor bo'ron" metodi: Bu metodni adabiyot fani to'garaklarida foydalanish mumkin. Bu usul o'quvchilardan e'tiborli bo'lishni, tezkorlikni, boshqa o'quvchilarni hurmat qilishni talab etadi. O'qituvchi qog'ozdan qor parchasi yasab oladi va qor parchasini savol bilan o'quvchilarga otadi. O'quvchi qor parchasini ushlab olib savolga tezda javob aytishi kerak bo'ladi. Buning uchun o'quvchilar o'tilgan mavzularni puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Masalan: 6-sinflarda G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasini misolida ko'rish mumkin.

1. "Shum bola" qissasi kimning qalamiga mansub? **G'afur G'ulomning**
2. "Shum bola" qissasining bosh qahramoni? **Qarovoy**
3. Qissada bo'lar - bo'lmas "innaykeyin" deb so'raydigan kim? **Sariboy**

4. Sariboy Qarovoyning qaysi yolg'onidan keyin hushidan ketadi? **Adolopaning o'g'li Badal aravakashning quyib qo'ygan o'zginasi degan yolg'onida keyin.**

Interfaol metodlar o'quvchining tasavvur va ko'nigmalar asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, dars jarayonida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Yuqorida interfaol o'ynlar yuqori sinflarda adabiyot darslari samaradorligini oshirishga, o'quvchilar bilimini rivojlantirishga, darsni yanada qiziqarli o'tkazishga amaliy yordam beradi.